INNOVATION: THE JOURNAL OF SOCIAL SCIENCES AND RESEARCHES
ISSN: 2181-3868 | SJIF-2023: 3.812 | ISI: 0.539 | VOLUME 3, ISSUE 3, 2025
INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL

ABDULLA QAHHOR HIKOYALARIDA EPIGRAF

Zayniddinov Ma'rufjon Farxodjon o'g'li
Samarqand davlat chet tillar instituti o'qituvchi
marufzayniddinov7@gmail.com

https://doi.org/10.5281/zenodo.15686983

Annotatsiya. So'z san'atkori Abdulla Qahhorning ijodi haqida gap ketganda hamisha uning tilga nihoyatda katta mas'uliyat bilan qaraganligi aytiladi. Birgina "Anor" hikoyasidagi ayrim somatik frazemalar tahlili ham bu fikrni yaqqol tasdiqlaydi. Ushbu maqolada epigraf misollar yordamida tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: epigraf, mahalliy ranglar, **aqliy erkinlik,** ijtimoiy, falsafiy, axloqiy jarayonlar

Аннотация. Когда речь заходит о творчестве мастера слова Абдуллы Каххара, всегда подчеркивается его огромное внимание к языку и высокой ответственности перед ним. Даже анализ некоторых соматических фразеологизмов в рассказе «Гранат» ярко подтверждает эту мысль. В данной статье приводится анализ с помощью примеров эпиграфов.

Ключевые слова: эпиграф, местные особенности, умственная свобода, социальные, философские, моральные процессы.

Annotation. When it comes to the works of the word artist Abdulla Qahhor, his great responsibility towards language is always emphasized. Even the analysis of certain somatic phrases in the story "Pomegranate" vividly confirms this idea. This article provides an analysis using epigraph examples.

Key words: epigraph, local colors, intellectual freedom, social, philosophical, moral processes.

O'zbekiston Qahramoni O.Sharafiddinov ta'qidlaganidek, "Abdulla Qahhor tilining yana bir fazilati uning milliyligidadir. Uning tilida o'zbek tilining ichki hayoti yorqin ifodalanadi. Bu milliylik, birinchi navbatda, xalq tilining ruhiga juda chuqur kirib borilganida, shu ruhni o'z asarlari tiliga ko'chira olganida ko'rinadi".

Ulug' so'z san'atkori Abdulla Qahhorning ijodi haqida gap ketganda hamisha uning tilga nihoyatda katta mas'uliyat bilan qaraganligi aytiladi. Birgina "Anor" hikoyasidagi ayrim somatik frazemalar tahlili ham bu fikrni yaqqol tasdiqlaydi.

Adibning ijod yo'lidagi deyarli barcha asarlarida hikoya janri alohida o'rin egllaydi. A. Qahhor hikoyalarini shunchaki yozmaydi, balki jamiyatda bo'layotgan nohaqliklar, odamlar o'rtasidagi adolatsizliklar kuchli satira ostida yoritiladi va buning yechimi kitobxon ixtiyoriga topshiriladi. Bundan tashqari, adib epigraflardan ham mohironalik bilan foydalanadi. Bu orqali kitobxon asarlar mazmunini tezda tushinib oladi.

"Anor" hikoyasi uchun qo'llangan jumlalarni olsak: Ijodkor, "Uylar to'la non, och-nahorim bolam, Ariqlar to'la suv, tashnai zorim , bolam". Ya'ni uylarda non bor, lekin och, ariqlar suvga to'lib yotganda, suvga tashna bo'lgan bolam, deb o'z hikoyasida keltirayapti. Mazkur asar urush payti yozilgani uchun, sovet tuzumidan azziyat chekkan xalq iztiroblari tasvirlangan. Hikoyadan kelib chiqadigan bo'lsak, uylarda non, ariqlarda suv bo'lsada, lekin yurtda, xonadonlarda tinchlik xotirjamlik bo'lmasa, demak bu xalqning qorni och deya tahlil

qilishimiz mumkin. Bundan tashqari, “o‘g’ri” hikoyasi uchun tanlangan “Otning o‘limi, itning bayrami[1]” va “Bemor” hikoyasi uchun tanlangan “Osmon yiroq, yer qattiq” maqollari ham o‘sha davr ijtimoiy ahvoli hamda qahramonlarning holatini to‘laqonli ochib beraolingan.

A. Qahhor “Anor” hikoyasi uchun epigrafni o‘ta mahorat bilan ishlatadi. Yuqorida takidlanganidek urush tufayli yuzaga kelib qolgan ochlik, xonadonlardagi yetishmovchilik, nochorlik sabab o‘g’rilikka qo‘l urgan kishi obrazini gavdalantirish uchun, albatta. Asarda voqealar rivoji Turobjonning xotini anorni ko‘ngli tusashi bilan boshlanadi. O‘sha davrdagi ijtimoiy holat, ocharchilik, nochorlik, kambag’allik sabab Turobjon ayoliga bir dona anorni olib kela olmaganligi, keyin esa o‘g’irlik qilishga majbur bo‘lishini adab kuchli satira orqali ifodalab beradi.

Bu holatdan ko‘rinib turibdiki, asarda kambag’allik, nochorlik, hamda ijtimoiy tengsizlik kabi dolzarb mavzular yoritilgan bo‘lib, keeling asardagi quyidagi parchani olaylik: - Axir, boshqorong’i bo‘l, evida bolda! -dedi do‘ppisini qoqmasdan boshiga kiyib, -anor, anor... Bir qadoq anor falon pul bo‘lsa! Saharmardondan suv tashib, o‘tin yorib, o‘t yoqib bir oyda oladiganim o‘n sakkiz tanga pul. Akam bo‘lmasa, ukam bo‘lmasa[2]... Asarning shu parchasida Turobjonning bu jarayondagi holati, ijtimoiy ahvoli qay holatda ekanligini hech qanday ta’riflarsiz ham olish mumkin.

Abdulla Qahhor bu asariga “Anor” nomini tanlar ekan, o‘sha davr tuzumi, ocharchilik, nochorlik holatlaridan kelib chiqqan holda anor mevasini nisbatan kam uchraydigan meva sifatida ko‘rishimiz mumkin. O‘sha davrda odamlar bir bo‘lak nonga zor bo‘lsa , anor ular uchun shunchaki orzu edi. Buni quyidagi parchadan bilib olishimiz mumkin: - Mushak , - dedi Turobjon, - Mullajon qozining bog’ida . Mullajon qozi beshik to‘yi qilgan. Xotin indamadi. – Shahardan to‘ralar ham chiqqan, – dedi Turobjon yana. Xotin yana indamadi. U mullajon qozining bog’ini ko‘rgan emas, ammo ta’rifini eshitgan. Bu bog’ni ko‘z oldiga keltirib ko‘rdi: bog’ emas, anorzor ... Anor daraxtlarida anor shig‘il, choynakday-choynakday bo‘lib osilib yotipti.

Xulosa qilib aytganda, A.Qahhor hikoyalari o‘zining ixcham va ravonligi bilan o‘quvchi qalbiga tez va oson kirib boradi. Adib asarlarida birorta so‘z ochiqchaligi sezilmasdi, ixcham ibolardan tashkil topgan. Insonlarning g’am-tashvishlarini yoki qalb tubida qolib ketayotgan orzu-umidlarini goh kulgili goh achchiq satira ostida o‘z asarlari orqali ommaga olib chiqdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. A.Qahhor. Anor. Qissa va hikoyalar.: - Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot – matbaa ijodiy uyi, 2012.

2. U.Normatov. Abdulla Qahhorni anglash mashaqqati. Toshkent: Universitet, 1999.

3. Xalova, M. (2022). POETIC INTERPRETATION OF WOMEN'S EXPERIENCE IN POETRY. МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ЯЗЫКА, ОБРАЗОВАНИЯ, ПЕРЕВОДА, 3(4).

4. Turniyozov N., Turniyozova K., Xayrullayev X. Struktur sintaksis asoslari //Samarqand: SamDCHTI. – 2009.

5. Хайруллаев Х. Предикативлик ҳодисаси ва унинг ифода объектлари. – 2002.

6. Khayrullaev K. Z. The relation of word, word composition and sentence to the predicativeness //Abstract of candidate dissertation.–Tashkent. – 2001.

7. https:// wikipedia .uz

[1] Abdulla Qahhor. “Anor”. Qissa va hikoyalar. Toshkent, 2012. – B. 76.

[2] Abdulla Qahhor. “Anor”. Qissa va hikoyalar. Toshkent, 2012. – B. 73.